# O’ZBEKISTONDA FRILANSERLIK VA AUTSORSERLIKNING RIVOJLANISH DARAJASI.

**Bobojonova M.J**
*Osiyo xalqaro universiteti o’qituvchisi*
**Naimova N.A**
*Osiyo xalqaro universiteti o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Hozirgi vaqtda frilanserlarga bo'lgan talabga bir nechta omillar ta'sir qilishi olimlat tomonidan aniqlangan. Birinchidan, barcha ish beruvchilarda zarur malaka va ixtisoslikka ega bo'lgan to'la vaqtli mutaxassislar etarli emasligi. Ikkinchidan, frilanser xizmatlari arzonroq. Bandlik bozorida frilanser taklifi uning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq - bir vaqtning o'zida bir nechta ish beruvchilar uchun ishlash yoki bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalarni amalga oshirish qobiliyati, shuning uchun frilanserlar deyarli doimiy ravishda ish qidirishadi va o'z xizmatlarini taklif qilishadi.*

**Tayanch so’zlar:** *frilanser, ijtimoiy-iqtisodiy, konvorking, autsorser, tender, kredit, elektr.*

O’zbekistonda frilanserlaik faoliyatini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagilarga e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo’lar edi, jumladan:

- joylarda yoshlar orasida frilans faoliyatini keng targ`ib qilish maqsadida, maxsus intensiv onlayn kurslar va mahorat darslarini ishlab chiqib, amalga oshirish;
- chekka hududlarda elektr ta’minoti va Internetning yuqori tezligini doimiyligini ta’minlash yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqib, ijroga qaratish;
- hududlarda mavjud kafe, kovorking-markazlari, park va kutubxonalar moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda ular sonini ko’paytirish va kengaytirish bo’yicha choralar ko’rish;
- frilanserlar faoliyatini inobatga olgan holda, ularga kredit ajratish va soliqqa tortish tizimini ishlab chiqish va joriy etishdir.

Yangi O`zbekistonda yoshlarni frilanserlik faoliyatiga jalb qilish yolida ularning bandligini ta’minlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab vazirligi 2022−2023 o’quv yilidan boshlab mamlakatning barcha hududlaridagi maktablar, maktab-internatlari va Mehribonlik uylarida ovqatlanishni autsorsing yo’li bilan tashkil etish taklif etilmoqda. Ta’lim tashkilotlarida autsorsing usulida sog`lom ovqatlantirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- o’quvchilarni to’laqonli sog`lom ovqatlantirish va sog`lig`ini mustahkamlash jarayonini samarali tashkil etishni ta’minlash;

- sifatli taomlar tayyorlash orqali o'quvchilarning sog`lom va barkamol o'sishini ta'minlash;
- o'quvchilarni sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari talablariga muvofiq sog`lom ovqatlantirish;
- ta'lim tashkilotlari rahbarlarini ta'limga oid bo'lmagan vazifalardan ozod qilish va ta'lim samaradorligini oshirish.

Autsorserlarga ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalari, idish-tovoqlari va mebelidan foydalanganlik uchun to'lov «nol» stavka bo'yicha belgilanadi hamda ovqatlantirishni tashkil etish uchun iste'mol qilinadigan kommunal xizmatlar qiymati ta'lim tashkilotiga ajratilgan Davlat byudjeti mablag`lari doirasida qoplanadi. Autsorserlar tender asosida tanlanadi. O'quvchilarni sog`lom ovqatlantirish bo'yicha namunaviy mavsumiy taomnomalar Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, Autsorsing xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar uyushmasi va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

Autsorser har kuni asosiy taomnomaning bir nusxasini ta'lim tashkiloti direktoriga taqdim etadi (ta'lim tashkiloti direktori kunlik taomnomalarni brakeraj komissiyasiga taqdim qilinishiga mas'ul) va bir nusxasini tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi yoki yuqori turuvchi tashkilotga har o'n kunda hisobot bilan topshiradi. Ovqatlar talabga javob bermagan taqdirda, komissiya taomlarni ekspertizadan o'tkazish uchun yuboradi, nomuvofiqlik to'g`risidagi ekspert xulosasini olgandan keyin komissiya raisi tumanga hisobot taqdim etishi shart. Autsorsing kompaniyalari majburiyatlariga o'z faoliyatini sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq amalga oshirish, taomnomalarda tayyor taomlarning vazni, tarkibidagi mahsulotlar miqdorlari va texnologik kartalarning mavjudligini ta'minlash, bitta o'quvchi uchun kunlik sarflanadigan mablag` miqdorini ko'rsatish, bolalar sog`lig`iga jiddiy zarar etkazuvchi, oziq-ovqat maxsulotlari va taomlar savdosiga qat'iyan yo'l qo'ymaslik va boshqalarni kiritish talab etiladi. Shuningdek, mamlakatimizning tibbiyot muassasalarida ham autsorsing tizimi joriy qilinmoqda. «O'zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi tuzilmasidagi tashkilotlarda autsorsing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida» Hukumat qarori (16-son, 10.01.2020-y.) qabul qilindi. Qarorga muvofiq, SSV tuzilmasidagi tashkilotlarda quyidagi xizmatlar autsorsingga o'tkaziladi:

- notibbiy xizmat turlari:
- mijozlarni ovqat bilan ta'minlash;
- kir yuvish xizmati;
- bino va inshootlarni saqlab turish, shuningdek, ularni muhandislik-texnik tizimlariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash

Mazkur ro'yxatda keltirilmagan xizmatlar autsorsingga davlat tibbiyot tashkilotining tashabbusi asosida SSV bilan kelishilgan holda o'tkaziladi.Qaror bilan tasdiqlangan

nizomga ko'ra, autsorsing xizmatlariga (mijozni ovqat bilan ta'minlash xizmatidan tashqari) haq to'lash miqdorlari SSV tuzilmasidagi tashkilotlar tomonidan tegishli xizmat tannarxiga autsorsing xarajatlarini qoplash maqsadida 20 foizgacha ustama haqni hisobga olgan holda belgilanadi.

Masalan, Sirdaryo viloyatda dastlab maktabgacha ta'lim muassasalarida joriy qilingan autsorsing tizimi endilikda tibbiyot muassasalariga ham tatbiq etilmoqda. Ilgari ta'minot korxonasi shifoxonalar oshxonasiga mahsulotni etkazib bergan, ammo ovqatning sifatiga mas'ul bo'lmagan. Autsorsingda esa, oshxona ham, oshpazlar ham bir tizim tarkibida bo'ladi va bu mazkur yo'nalishda sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, oshxonaga mahsulot etkazib beruvchi va taom tayyorlovchining birdek mas'uliyat bilan ishga yondashishini anglatadi. Boshqacha aytganda, avvallari shifoxonalarda ichburug`ga chalingan bemorga ham, qon bosimi yuqori yoki kamquvvat bemorlarga ham bir xilda taom tayyorlab berilgan. Endilikda esa barchasi boshqacha: davolovchi shifokorning bemorlarga ovqatlanish tartibi bo'yicha buyurganiga ko'ra, har bir bemorning ovqatlanishiga individual yondashiladi. Viloyatdagi tibbiyot muassasalari orasida birinchi bo'lib sog`lom ovqatlantirish bo'yicha autsorsing tizimi Guliston shahar markaziy shifoxonasida joriy qilindi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, *21*, 51-55.
2. Supiyevna, B. M. (2024). O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO'LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, *4*(08), 78-84.
3. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, *46*, 379-385.
4. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA UNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, *3*(6).
5. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.
6. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *54*, 70-77.

7. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, *3*(8), 10-18.

8. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, *46*, 366-372.

9. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, *3*(1), 939-946.

10. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, *42*, 481-484.

11. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag'batlantirish. *Miasto Przyszłości*, *53*, 524-531.

12. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.

13. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, *49*, 249-255.

14. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *11*(11), 418-426.

15. To'rayevna, S. N. (2023). YANGI IQTISODIYOTDA RAQAMLI MEHNAT.

16. Sodiqova, N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *Modern Science and Research*, *3*(6).

17. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(14), 45-53.

18. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(2), 459-463.

19. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'Llari. *Miasto Przyszłości*, *54*, 857-866.

20. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.

21. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, *3*(2), 234-239.

22. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, *42*, 517-520.

23. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(2), 459-463.

24. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(2), 286-294.

25. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, *51*, 191-195.

26. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *48*, 715-720.

27. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, *54*, 1356-1364.

28. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(8), 48-52.

29. Djurayeva, M. S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *11*(12), 222-227.

30. Sadilloyevna, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *11*(11), 241-248.

31. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje.*, *51*, 160-166.

32. қизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *" Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал*, *6*(14).

33. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, *54*, 764-771.

34. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PRPERTY AND HUMAN RIGHTS*, *3*(10), 37-44.

35. Lolaxon, R. (2024). THE ROLE OF MARKETING STRATEGIES IN TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *11*(11), 230-240.

36. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje.*, *51*, 138-145.

37. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O ‘Rni. *Gospodarka i Innowacje.*, *53*, 205-213.

38. Aziz, I. (2023). O’zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo’llari. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, *1*(5), 191-196.

39. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG ‘BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, *51*, 116-122.

40. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O ‘Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, *53*, 1231-1237.

41. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA.

42. TEMPUS, I. (2016). Towards the ModernisATion of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATcHES). *TEMPUS*, *4*, 2007-2013.

43. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. *Инновационное развитие*, (6), 35-37.

44. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.